O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Jizzax davlat pedagogika instituti
rektori ________ prof.Sh.S.Sharipov
________ 2021 yil

# PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI FANINING O’QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Ta’lim |
| **Ta‘lim sohasi:** | 110000 – Ta’lim |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 70110101- Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo’yicha) |

Jizzax – 2021

| | |
|---|---|
| | 3. www. Ziyonet.uz<br>4. www.edu.uz<br>5. tdpu- INTRANET. Ped |
| 7. | Tanlov fan dasturi Jizzax davlat pedagogika instituti Kengashining 2021 yil "___" ___________dagi ___ - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>Rahmatova F Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>To'raqulova I.X A.Qodiriy nomidagi JDPI Pedagogika va psixologiya fakul'teti dekani, pedagogika fanlari nomzodi<br>K. Abrorxonova Nizomiy nomidagi TDPI Boshlang`ich ta`lim pedagogikasi va psixologiya kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) |



| Fan/modul kodi<br>PFT2020<br>(magistratura) | | O'quv yili<br>2021-2022 | Semestr<br>3-semestr | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy fan | | **Ta'lim tili**<br>O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| 1. | **Pedagogik fikrlar taraqqiyoti** | 60 soat<br>**3-semestr**<br>Ma'ruza-30<br>Amaliy-30<br>Jami:60 | | 60 soat<br>**3-semestr**<br>Mustaqil ta'lim-60 soat | 120 soat |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanning maqsadi – magistrantlarning tarixiy-pedagogik dunyoqarashini shakllantirish va jahon va milliy ta'limni rivojlantirishga xissa qo'shgan etakchi pedagogik g'oyalar va konsepsiyalar tapixini o'rganish asosida ijodiy pedagogik fikrlashini rivojlantirish.

Fanning vazifalari – magistrlarni asosiy ilmiy-pedagogik yo'nalishlar va konsepsiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi bilan tanishtirishdan, ularni turli davrlar va xalqlarning atoqli pedagog-olimlarining ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyo ti sohasidagi yutuqlari bilan tanishtirishdan; jamiyat hayotida, shaxsning aniq tarixiy rivojlanishi jarayonida ta'limning o'rni to'g'risida magistrlarning barqaror qarashlarini shakllantirishdan; turli xil tarixiy va pedagogik faktlar, konsepsiyalarning progressivligi, o'ziga xosligi nuqtai nazaridan magistrlarning tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash qobiliyat-larini rivojlantirishdan va pedagogik fikrlar tarixidagi yetakchi tendensiyalarni amaliyotda foydalanishga tayyorlashdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Pedagogik fikrlar taraqqiyoti ilmiy bilimlar sohasi sifatida. Pedagogik fikrlarning ilk manbalari.**

"Pedagogik fikrlar taraqqiyoti" faning maqsadi – eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini tizimli yondashuv asosida o'rganishdan iborat.Maktab va pedagogika ko'p asrlik tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Mazkur davrda pedagogika fani ko'plab g'oyalar va kontseptsiyalar bilan boyib bordi.

**2-mavzu. O'rta asrlardagi pedagogik fikrlar (VII-XIV asrlar).**

Xalq og'zaki ijodi haqida tushuncha. Xalq og'zaki ijodi insoniyat nutqi

paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Uni tashkil topishida o'sha davr shart-sharoiti odamlarning mehnat turmush tajribalari, dunyoqarash va tushunchalari hal qiluvchi rol o'ynagan. Eng avval og'zaki nasriy turining dastlabki namunalari vujudga kelgan.

**3-mavzu. Sharq Uyg'onish davridagi qomusiy olimlarning asarlarida pedagogik fikrlar (VII-XIV asrlar).**

SHarq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari IX-XII asrlar davomida Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o'lka sifatida mashhur bo'lib, bu erda qadimiy an'analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi Yunon ilmiy-madaniy an'analari qorishuvi asosida islomiy falsafiy va tabiiy ilmlar – asronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jo'g'rofiya kabilar rivoj topdi. Bu erda maxsus hadisshunoslik va islom fiqhshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda ham muhim asarlar vujudga keldi. Bu davr ma'naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko'pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo'lib, ilmlar bir-biridan ajralmas, uzviy bog'liq holda mavjudligi xarakterli edi. SHuning uchun ham Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniylar juda ko'p sohzalarda ijod qilib, o'chmas iz qoldirdilar.

**4-mavzu. SHarq o'yg'onish davrida ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi pedagogik asarlar.**

Muhammad ibn Al-Xorazmiy (783-850). Jahon ilm-ma'rifatining buyuk nomoyondasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783 yilda Xorazmiyda dunyoga kelib, 847-850 yillar oraligida Bog'dodda vafot etgan. Xorazmiy tug'ilib voyaga etayotgan davrda Movarounnahr yirik madaniy va savdo markazlaridan biri edi. Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Al-Majusiydir, "Abu-Abdulloh Muhammad " Islomga o'tganlarga beriladigan an'anaviy ism bo'lgan. Xorazmiyning avlodlari majusiy koxinlaridan, ya'ni "Mug'ullar"dan bo'lib, islomni otasi qabul qilgan bo'lishi kerak.

**5-mavzu. . XIV – XVII asrlarda Markaziy Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti.**

Alisher Navoiyning hayoti, ijodi va qarashlari o'zining g'oyaviy-nazariy jihatlari bilan O'rta va Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikrlar bilan chambarchas bog'liq. U o'zi jodi va faoliyatida o'rta asrlar falsafiy she'riyatining mashhur vakillari Yusuf Xos Xojib (X asr), Ahmad Yugnakiy (XII asr), Firdavsiy (XII asr), Ahmad Yassaviy (XIII asr), Sa'diy Sheroziy (XIII asr), Nizomiy Ganjaviy (XIII asr), Hofiz Sheroziy (XIV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr) kabi buyuk ustozlari va salaflarining an'analarini davom ettirdi.

**6-mavzu. XVIII-XIX asrlardagi Markazi Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti.**O'lkani Rossiya imperiyasi bosib olgandan so'ng 1870 yillarda qizlar talimi bo'yicha bazi malumotlar mavjud. Turkistonda shahar va qisman qishloqlarda qizlar uchun boshlang'ich maktablar ham mavjud bo'lgan.



O'qituvchi, 1999.
4. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.
**5.** Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., Morxova I.V., Marken-dudi M.A. Teoriya i praktika obshey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
2.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
3.O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 150-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
4.Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi// Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
5.Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
6.Xasanboyev J, To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
7.Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
8..Kagan,S. Sooperative learning. 2nd ed. San Clemente, CA:Kagan Publishing, 1994.
9.Hartlej I. Stratedies from Programmed Instrukctionanal Technologj.- London, 2006, 179 r.
10.Heckhausen H. Motivation und Handeln. Berlin: Springer, 2011 – 244 p.
11.Andreyev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiY. – Kazan: KGU, 1996.
12.Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2002.
13.Pedagogika: Bolshaya sovremennaya ensiklopediya / Sost. YE.S.Rapasevich.– Minsk: «Sovremennoye slovo», 2005.

**Axborot manbalari**

1. www.tdpu.uz
2. www. pedagog.uz

- talabaning o‘quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog`liq bo‘lgan fanlarbo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganishi bildira olishni ***malakalariga ega bo‘ladi.***

**4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma’ruzalar;
- interfaol keyslar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- individual loyihalar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha topshiriqni bajarish

**PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI**

**fani bo‘yicha talabalar bilimini baholash va nazorat mezonlari**

**fani bo‘yicha talabalar bilimini baholash va nazorat mezonlari**

| № | Nazorat turlari | Nazorat o‘tkazish muddatlari (*har bir modul yakunidan nazorat o‘tkaziladi*) | Ajratilgan bal ar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Eng yuqori ball | O‘tish ball | Umumiy ball |
| 1 | Joriy nazorat (*fan 6 moduldan iborat*) | 1 modul | 5 | 3 | 30 |
| | | 2 modul | 5 | 3 | |
| | | 3 modul | 5 | 3 | |
| | | 4 modul | 5 | 3 | |
| | | 5 modul | 5 | 3 | |
| | | 6 modul | 5 | 3 | |
| 2 | Oraliq nazorat | Oraliq nazorat | 20 | 12 | 20 |
| 3 | Yakuniy nazorat | Yakuniy nazorat | 50 | 30 | 50 |
| | Jami | | | | 100 |

Izoh: 1-JN ( 1-3-modul) Jami ball- 15 ball
2- JN (4-6-modul) Jami ball- 15 ball
1-ON Jami 10 ball
2-ON Jami 10 ball

**6. Asosiy adabiyotlar**

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1997.
3. Safo Ochil., Hoshimov K. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.:



Qishloq joylarda qizlar maktabi juda kam hollarda uchrar edi. Bazi hududlarda 100 ta maktabga bitta qizlar maktabi ham to’g’ri kelmas edi. Biroq bazi shaharlarda qizlar maktablarining soni o’g’il bolalar maktablarining chorak qismiga teng kelgan.

**7-mavzu. XIX – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi pedagogik fikrlar taraqqiyoti.**

Mustaqillik va ta’lim tizimida islohotlar. Mustaqillik e’lon qilingan (1991 yil 1 sentyabr) dastlabki yillardanoq O’zbekiston hukumati ta’limga ustivor soha sifatida e’tibor berib kelmoqda. O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud bo’lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishi O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida qonuniylashtirilgan. Mustaqil Respublikamizda xalq ta’limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi.

**8-mavzu. Pedagogik fikrlarning sho‘ro davridagi rivoji. Mustaqil O‘zbektonda pedagogik fikrlarning rivojlanishi.**

Uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo xalqlari o‘zining ta’lim–tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnasevarlik, do‘stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma’rifiy fikr sarchashmalari qadimqadimlarga borib taqaladi. Lekin mustaqillikka erishgunimizga qadar biz bu meroslarning baridan bebahra edik. Istiqlolimiz sharofati bilan milliy-madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma’naviyatimizni o‘rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

**9- mavzu. Jahonda eng qadimgi davrlarda pedagogik g‘oyalar.**

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

**10-mavzu: O‘rta asrlarda jahon pedagogik fiklar**

Qadimgi Yunonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o’ziga xos ediki, unda bolani nafaqat jismoniy chiniqtirish, balki ma’naviy tomondan xam barkamol bo’lishi nazarda tutilgan. Bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar xam o’rgatilgan. Bu mashg’ulotlarning mazmuni jangovar hamda harbiy tusda bo’lgan.

**11-mavzu. Yangi davrda va Maorif davrida Yevropada pedagogik fikrlarning rivojlanishi**

Bugungi kunda jahon tajribasiga murojaat qilmasdan, insonning ma’naviy

va axloqiy shakllanishidagi muammolarni hal qilib bo‘lmaydi. Hindistonda ma’naviyaxloqiy tarbiya tizimining rivojlanish tarixi boy va ko‘p qirrali bo‘lganligi sababli, uning asosiy tendensiyalari juda dolzarbdir. Hindiston nafaqat ajoyib va mo‘jizaviy mamlakat, balki qadimiy donoligi bilan ham uni ‘‘insoniyatning ustozi’’ sifatida qabul qilish mumkin.

**12-mavzular. XIX asrda G‘arbiy Evropada pedagogik fikrlarning rivojlanishi.**

Iogann Fridrix Gerbart Germaniyada tug`ildi. Gerbart dastlab lotincha klassik maktabda, so`ngra esa Iyen universitetida o`qidi. Gerbart universitetni tamomlagach, shveytsariyalik bir aristokrat oilasida tarbiyachi bo`lib ishladi. 1800 yilda u Pestalotssining Burgdorf institutiga bordi. Lekin u ulug` pedagogning demokratik qarashlarini o`zlashtira olmadi.

**13-mavzu. XIX asr jahon pedagogikasi klassiklarining pedagogik asarlari**

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligining e’tirof qilingani haqiqatdir. Shu tufayli ham rivojlangan mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta’minlashga ajratilayotgan mablag’ miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

**14-XIX asrning oxiri XX asr boshlarida reformatorlik pedagogikaning konsepiyalari va g‘oyalari.**

Qiyosiy pedagogik tizim bu qiyosiy pedagogika metodologiyasi asosida pedagogikaning xalqaro, regional, milliy tajribalarini o’rganish va tatbiq qilish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, pedagogik tizimni ma’lum davlat, region, aniq o’quv muassasida rivojlantirish bo’yicha qiyoslashga yo’naltirilgan dinamik pedagogik tizimdir.

**15- XX asrda mustaqil davlatlar hamdo‘stligida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. XXI asr pedagogikasi.**

Ta’lim to’g’risida g’amxo’rlik qilish taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e’tiborida bo’lgan. Shuning uchun xam AQSHning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni,

**III. Amaliy mashg’ulotlari bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta’lim-tarbiya masalalari.Xalq pedagogikasida ta’lim-tarbiya masalalari
2. Hadis ilmining tarviyaviy ahamiyati
3. Abu Nasr Forobiyning pedagogik g’oyalari va Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiya haqida
4. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg’ariy va Ahmad Yugnakiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari, Kaykovusning “Qobusnoma” asari juvonmardlik tarbiyasi
5. Mirzo Ulug’bekning pedagogik g’oyalari va ta’lim rivojidagi xizmatlari”
6. Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-ahloqiy qarashlari va Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.



7. Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.
8. O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va O’zbekiston Respublikasiningi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi.
9. Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi.Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning pedagogik tizimi
10.“XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendentsiyalar (konferensiya)

**IV.Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

1. Pedagogik fikrlarning ilk manbalari
2. Hamkorlik pedagogikasining asosiy g‘oyalari
3. XIX asr jahon pedagogikasi klassiklarining pedagogik asarlari
4. I.A.Karimov asarlarida yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish g‘oyalari
5. Yangi zamon pedagogik ta’limotlari (XVII- XX asrlar).
6. XIX asrda G‘arbiy Yevropada pedagogik fikrlarning rivojlanishi
7. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari
8. Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.
9. Xalq pedagogikasida ta’lim-tarbiya masalalari

Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta’lim-tarbiya masalalari.

10. .“XX asr jahon ta’lim tizimidagi global tendentsiyalar (konferensiya)

3. **V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida magistrant:

-ta`lim mashg`ulotlarida magistrantlar Pedagogik fikrlar taraqqiyoti predmetiga oid bilimlarni o‘zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishlash metodikasi tufayli talabalar fandan mukammal bilim oladilar, pedagog kasbini egallash uchun jiddiy tayyorgarlikdan o‘tadilar.

-ta`lim mashg`ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar tavsiya qilingan adabiyot materiallarini qunt bilan o‘rganib chiqishi, pedagoglik kasbiga kirish muammolariga doir ma`ruza yoki referat tayyorlashi; amaliy topshiriqlarni bajarishi, rivojlanishi, yangilanish va modernizatsiya jarayonlari haqidagi ***bilimga***;

Talaba mavzuni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

-darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rgana olish ***ko‘nikmalariga;***

-tarqatma materiallar bo‘yicha ma`ruzalar qismini o‘zlashtirish;

-maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzular ustida ishlash;